

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari

Son 11 Jild 4

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллӣ Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллӣ Университети.

Сайдов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ҳодим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳоновиҷ – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёрова – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмурадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасолович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баҳодирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўёраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуроевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психология хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч қўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Lutfillova Xamida</i>	<i>Murodillova</i>	Лутфиллаев Ҳамидаилло Муродиллаевич
“ЖАВОҲИР АТ-ТАФСИР ЛИ ТУҲФАТ АЛ-АМИР” АСАРИНИНГ МАЗМУНИ ВА ТАРКИБИЙ		
ҚИСМЛАРИ ҲАҚИДА		12-17
<i>Ezhambergenov Xaitboy</i>	<i>Xamidulla</i>	Эзгамберганов Ҳайтбой Ҳамидулло ўғли
ТОШ ДАВРИ АҲОЛИ МИГРАЦИЯЛАРИ (ЎРТА ОСИЁНИНГ ЖАНУБИЙ, ЖАНУБИЙ-ҒАРБИЙ		
ВА ҚУЙИ АМУДАРЁ ҲУДУДЛАРИ МИҚЁСИДА)		18-25
<i>Esonov Ziyodbek</i>	<i>Yuldashevich</i>	Esonov Ziyodbek Yuldashevich
QO'QON XONLARI SULOLASINING GENEOLOGIK TAHLILI		26-31
<i>Mamatqulov Bekzod</i>		Mamatqulov Bekzod
O'ZBEKISTONDA XX-ASRNING 20-40-YILLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI		
VA KADRLAR TARKIBINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI		32-38
<i>Asadova Ra'no</i>	<i>Baymanovna</i>	Asadova Ra'no Baymanovna
O'ZBEK- HIND MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHGA KO'TARILISHI: HAMKORLIK		
ISTIQBOLLARI		39-42
<i>Saidova Raxima</i>		Saidova Raxima
O'ZBEKISTON VA ITALIYA MUNOSABATLARINING ME'YORIY-HUQUQIY MANBALARI		43-48
<i>Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich</i>	<i>Ergasheva Ra'no</i>	Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich, Ergasheva Ra'no Muzaffarbek qizi
AFROSIYOB ARXEOLOGIK YODGORLIGINING O'RGANILISH TARIXI		49-55
<i>Iriskulov Bekzod Jaxongirovich</i>		Iriskulov Bekzod Jaxongirovich
TURKİSTON GENERAL-GUBERNATORLIGI BYUDJETINING SARFLANISHIGA DOİR AYRIM		
MULOHAZALAR		56-60
<i>Mirsoatova Sayyora</i>	<i>Turg'unovna</i>	Mirsoatova Sayyora Turg'unovna
QOYATOSH SURATLARIDA IBTIDOIY DAVR IQTISODIY HAYOTINING AKS ETISHI		61-66
<i>Luhmonov Shaxzod</i>	<i>Sayfiiddin</i>	Luhmonov Шаҳзод Сайфиддин ўғли
ВЛИЯНИЕ ДЕНЕЖНОЙ ЭМИССИИ В 1918-1920 ГОДАХ НА СОЦИАЛЬНО-		
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ НАРОДОВ ТАССР		67-71
<i>Axmedov Bekzod</i>		Axmedov Bekzod
SOVET HOKIMIYATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNI RIVOJLANTIRISH		
TADBIRLARI		72-75
<i>Mamatov Jasurbek</i>	<i>Qodirqul o'g'li</i>	Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li
NAMANGAN VILOYATI ZIYORATGOHLARINING AHOLINING IJTIMOIY HAYOTIDAGI O'RNI		
(UYCHI TUMANI DEVONA BUVA ZIYORATGOHI MISOLIDA)		76-80
<i>Saidaxmatov Sharifbek</i>	<i>Toshpo'latovich</i>	Saidaxmatov Sharifbek Toshpo'latovich
SURXONDARYO VILOYATI SANOATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY		
YO'NALISHLARI		81-88

Ибрагимов Раҳмон Зиёдуллаевич
 ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ПАЛЕОМЕТАЛЛ ДАВРИ ЖАМИЯТИ ТАРАҚҚИЁТИДА ТАБИЙ
 РЕСУРСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ 89-93

Akrorov Botir Bakhodirovich
 ДОГОВОРНО-ПРАВОВАЯ БАЗА СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИРАНА
 В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ 94-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Tursunov Bekmuxammad Omonovich
 IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI
 RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMI TAKOMILLASHTIRISH 100-108

Muxitdinova Kamola Alisherovna
 «OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AJDA ISHLAB CHIQARILADIGAN
 MAHSULOTLARNING SANOAT KORXONALARIDA QO'LLANISHI 109-115

Madraximov Qaxramon Egamberganovich
 INNOVATSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI IQTISODIY BARQARORLIKKA
 ERISSHISH YO'LLARI: XORAZM VILOYATI MISOLIDA 116-125

Кетманов Авазбек Маликович
 КИЧИК БИЗНЕС МОЛИЯВИЙ РЕСУРСЛАРИ САМАРАДОРЛИГИ ОМИЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ
 ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ 126-134

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich
 KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASHISHNING OMILLARI 135-142

Bahriiddinov Jahongirbek Ravshanjon oglisi
 MARKET MECHANISMS, METHODS OF PRICE FORMATION IN THE SYSTEM OF MARKETING
 OF GOODS AND SERVICES 143-152

Ilhamova Zarnigor Po'latjon qizi
 MINTAQА TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MARKETING TIZIMINI
 TASNIFI 153-160

Sharipov Komil
 MINTAQAVIY KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDAGI KICHIK BIZNESNING ROLI 161-170

Rajabov Navruzbek Azimjonovich
 MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANISHI VA KAMBAG'ALLIKNI
 QISQARTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI 171-179

Mirzaeva Shirin Nodirovna
 SUPPORT AND DEVELOPMENT OF WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IN
 UZBEKISTAN 180-187

Pardayev Rasulbek Islomovich
 TURIZM XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING USULLARI VA ULARNING
 TAHLILI 188-196

Bahodirov Shohruh Bahodir o'g'li
 SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH
 XUSUSIYATLARI 197-202

<i>Rahimov Bahromjon Ibrahimovich</i>	
ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ	203-209
<i>Zakirova Gulnora Mirzalievna, Madaminov Abdulaziz Anvarjon o'g'li</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKSPORT VA IMPORT SALOHIYATI (NAMANGAN VILOYATI TAHLILIDA).....	210-216
<i>Hasanov Ilkhom Isakovich</i>	
IMPROVING THE FINANCING MECHANISM OF THE SCIENTIFIC SUPPLY SYSTEM IN THE AGRICULTURE OF UZBEKISTAN.....	217-221
<i>Ibragimova Nilufar Ziyadullayevna</i>	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA XIZMATLAR KO'RSATISHNING XUSUSIYATLARI	222-227
<i>Maxmudov Jasurbek Ergashevich</i>	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY JIHATDAN QO'LLAB-QUVVATLASH TAHLILI	228-233
<i>Ravshanov Nodirjon Begalievich</i>	
TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	234-243
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i>	
SHIHOBIDDIN SUHRAVARDIY FALSAFIY QARASHLARIGA IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYATLARNING TA'SIRI	244-248
<i>Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich</i>	
XORAZM JADIDLARI MA'NAVIY MEROSINING YANGI O'ZBEKİSTONDA YOSHLARINI VATANPARVARLIK VA BAG'RIKENGLIK RUHIDA TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI	249-254
<i>Saburov Jaloliddin</i>	
XVIII-ASR OXIRI VA XIX-ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA ILM-FAN VA MADANIY HAYOT RIVOJI	255-260
<i>Jabborov Ikromjon Jumaniyozovich</i>	
NAJMIDDIN KUBRO TA'LIMOTIDA "KOMIL INSON" TARBIYASI VA UNING AXLOQIY VA MA'NAVIY YUKSALISHGA OID G'OVALARING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	261-265
<i>Saidkulov Nuriddin Akramkulovich</i>	
FORMATION OF PERSPECTIVES REGARDING SOCIETY'S STABILITY	266-271
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i>	
MAHMUD AZ-ZAMAHSARIY QARASHLARIDA SUV VA SHIFOBAXSH MEVALAR MASALASI	272-277
<i>Yuldashev Farrux Abdurakhmanovich</i>	
ON THE QUESTION OF THE UNIQUE ROLE OF THE PRINCIPLES OF HUMANITY AND PATRIOTISM IN THE DEVELOPMENT AND STRENGTHENING OF THE FUTURE OF THE YOUNG GENERATION	278-282
<i>Ganiyev Baxodirjon Sodiqjonovich</i>	
TADBIRKORLIK MADANIYATINING SENSUALISTIK VA AKSIOLOGIK XUSUSIYATLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI	283-287

11.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI*Baxronova Dilrabo*

PROTOTURKIYLARNING AMERIKA QIT'ASIGA KO'CHISHI: LEKSIK PARALLELIZM VA ETIMOLOGIK-SEMANTIK TADQIQ 288-295

Daliyeva Madina

DETERMINANTS OF COGNITIVE MODELING OF POLYSEMY OF LINGUISTIC TERMS IN ENGLISH, UZBEK, AND RUSSIAN LANGUAGES 296-300

Paluanova Khalifa

STRATEGIES FOR ENHANCING PRAGMATIC COMPETENCE IN SECOND LANGUAGE ACQUISITION (SLA) THROUGH EFFECTIVE APPROACHES 301-306

Равшанов Махмуд

СЕМАНТИКА ГЛАГОЛОВ В «ДИВАНИ ЛУГАТ-ИТ ТУРК» МАХМУДА КАШГАРСКОГО 307-311

Bekbergenova Gulaim Aijarikovna

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ENGLISH AND KARAKALPAK ANTHROPOCENTRIC PROVERBS 312-318

Normamatov Farrux Komiljon o'g'li

MURAKKAB USLUBDAGI ASARLAR XUSUSIYATLARI VA UNDA FORMALIZM YONDASHUVI 319-322

Gulamova Dilobar Imamkulovna

ADABIYOT DARSLIKLARDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI VA TAHLILI 323-326

Xolmuxamedov Baxtiyor

TERS LUG'ATLARNING ASOSIY XUSUSIYATI VA ULARNI TUZISH METODIKASI 327-334

Chorieva Iroda Kurbonboevna

KASALLIK NOMLARI VA BELGILARI KELTIRILGAN INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI 335-339

Ganiyeva Orzigel Xayriddinovna

XX ASR AMERIKA REALISTIK QISSACHILIGIDA POETIK KONSTRUksiya: SHAKL VA MAZMUN MASALASI 340-345

Расулова Камола

ПОНЯТИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ. ВИДЫ АВТОРСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ 346-353

Омонов Турғунбой

“СУФУРТА” ТЕРМИНИНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАЪРИФИ 354-358

Хакбердиева Сайёра Фармоновна

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ОБЪЕКТИВИЗАЦИЯ ФРЕЙМА «МАТЬ» И «ОТЕЦ» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ 359-364

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamahmudovich

IJTIMOIY-SIYOSIY ASAR TARJIMASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 365-370

Gubaydullin Artur Faridovich

CHALLENGES OF TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S “GOOD OMENS” 371-376

Abdullaeva Sevara Makhsudalievna

EMOTIVE INTENSIFIERS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES 377-381

<i>Baymuradova Gulbaxar Chari Qizi</i>	
SURXONDARYO VILOYATI FITOTOPONIMLARINING STRUKTURGRAMMATIK TAHLILI	382-385

<i>Yuldasheva Nigora Baxodirovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK PAREMIYALARINI O'RGANISHNING AKSIOLOGIK JIHATLARI	386-390

<i>Quljanova To'lg'anoy Shodiyor qizi</i>	
ABDUVALI QUTBIDDIN SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZLAR TAHЛИLI	391-396

12.00.00 – YURIDIК FANLAR

<i>Рузметов Хайрулла</i>	
ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИ МАНСАБДОР ШАХСЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ХУҚУҚИЙ ЖАВОБГАРЛИГИ	397-402

<i>Ачилова Лилия Илхомовна</i>	
ТУРИСТИК ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ БЎЙИЧА ФУҚАРОЛИК-ХУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ УНИФИКАЦИЯСИ ЧЕГАРАЛАРИ РАҚАМЛАШТИРИШ ШАРОИТИДА	403-410

<i>Abdubannayev Umidjon</i>	
AXBOROTGA BO'LGАН INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	411-421

<i>Халиқулов Комолиддин Носирович</i>	
ХОРИЖИЙ ДАВЛАТ СУДЛАРИНИНГ ҚАРОРЛАРИНИ ТАН ОЛИШ ВА ИЖРО ЭТИШДА ДАВЛАТ СУВЕRENИТЕТИ МАСАЛАЛАРИ	422-427

<i>Тўраев Жавоҳир Усмон ўғли</i>	
ХОДИМЛАР МЕҲНАТ ҲУҚУҚЛАРИГА РИОЯ ҚИЛИНИШИ БЎЙИЧА ДАВЛАТ НАЗОРАТИ ВА ТЕКШИРУВИ ТУШУНЧАСИГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР	428-433

<i>Элмурзаев Билолиддин Нурмон ўғли</i>	
ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА ТЕРГОВЧИННИНГ ПРОЦЕССУАЛ МУСТАҚИЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ	434-439

<i>Djumaniyazova Dilfuza Kamalovna, Shayakubov Shomansur Shakabilovich</i>	
IJTIMOIY HAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA XORIJY TAJRIBA	440-446

<i>Алиев Асилбек Кадирович</i>	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ (СОЦИАЛЬНЫЕ) ПРЕДПОСЫЛКИ И КОРНИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ АЗАРТНЫХ ИГР СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ	447-451

<i>Нодирахон Абдурахманова</i>	
РЕГУЛИРОВАНИЕ ФИНТЕХА И КРИПТОВАЛЮТ: ОСНОВНЫЕ ВЫЗОВЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	452-462

<i>Ғайбуллаев Соҳибжон Ғайбуллаевич</i>	
РЕПО БИТИМЛАР – ТАЪМИНЛОВЧИ БИТИМ СИФАТИДА УМУМИЙ ТАВСИФ	463-469

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Xusanova Mohira</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA TALABALARNI BAHOLASH SHAKLINI TAKOMILLASHTIRISH	470-479

<i>Берикбаев Алишер Аликулович</i>	
ТАСВИРИЙ САНЪАТ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ИЛГОР ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	480-483
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TALABALARING TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	484-489
<i>Yakubova Nafisa Odilyanovna</i>	
CHIZMACHILIK DARSLARIDA TALABALARNI IJODIY-KREATIV FIKRLASHGA O'RGGATISH	490-494
<i>Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li</i>	
TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI	495-500
<i>Suvankulov Umid Ilxom o'g'li</i>	
MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA PEDAGOGLARNING DISKURSIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEKNOLOGIYASI	501-505
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloyevich</i>	
O'QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHGA KOGNITIVFUNKSIONAL YONDASHUV	506-518
<i>Jo'rayeva Feruza Baxtiyor qizi, Mavlonov Shaxzod Shahobiddin o'g'li</i>	
TA'LIMDA KOMMUNIKATIV INNOVATSION VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI	519-524
<i>Siddiqova Shahnoza Ahmedovna</i>	
SCIENCE XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'ZBEKİSTONDA BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING TABIIY FANLAR SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIRI	525-529
<i>Xoliqov Nasriddin Abdikarimovich</i>	
MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING SHARTI SIFATIDA TA'LIM, FAN VA BIZNESNING O'ZARO ALOQALARI MAZMUNI	530-534
<i>Javliyeva Shahnoza Bahodirovna</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	535-539
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i>	
TA'LIM SIFATIGA YO'NALTIRILGAN O'QUV MATERIALLARINI YARATISH MODELI	540-545
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i>	
THE IMPORTANCE OF FINE ARTS IN SHAPING STUDENTS' PERCEPTION AND CREATIVITY	546-550
<i>Khojamqulov Rasulbek Kurban ugli</i>	
THE NEED TO DEVELOP COMPETENCY OF FUTURE ENGINEERS USING COMPUTER GRAPHICS	551-555
<i>Latipova Gavhar Shavkat kizi</i>	
TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA	556-564
<i>Ernazarov G'olibjon Ne'matovich</i>	
ATROF- MUXITNING YUKORI XARORATIDA MUSHAK FAOLIYATI	565-568

Received: 31 October 2024

Accepted: 5 November 2024

Published: 15 November 2024

Article / Original Paper

DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE POTENTIAL IN HISTORY CLASSES AS AN URGENT PEDAGOGICAL PROBLEM

Latipova Gavkhar Shavkat kizi

Doctoral student, Institute for Retraining and Advanced Training of Personnel of the Higher Education System

Abstract. The article examines the psychological and pedagogical aspects of the development of creative potential and creative abilities of schoolchildren in history lessons. Also, the problems related to objective thinking and expansion of thinking in mastering the science of history are considered.

Keywords: pedagogy, psychology, creative thinking of historical sciences, teaching process, interdisciplinary connection, interdisciplinary approach, didactic purpose, didactic games, interactive methods.

TARIX YO'NALISHI TINGLOVCHILARI UCHUN KREATIV RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Latipova Gavhar Shavkat kizi

Oliy ta'lIM tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti doktoranti

Annotatsiya. Maqolada tarix darslarida maktab o'quvchilarining kreativ salohiyatini, ijodiy qobiliyatlarni rivojlanirishning psixologik va pedagogik jihatlari ko'rib chiqiladi. shuningdek, tarix fanini o'zlashtirishda obyektiv fikrlash va tafakkurni kengaytirish bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, psixologiya, tarix fanlari ijodiy fikrlash, o'qitish jarayoni, fanlararo aloqadorlik, fanlararo yondashuv, didaktiv maqsad, didaktik o'yinlar, interaktiv metodlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I11Y2024N84>

Kirish. Bugungi kunda ta'lIM tizimining muammosi o'quvchilarini qiziqtirgan holda ta'lIM berish bilan birgalikda turli didaktik vositalardan foydalanish hisoblanadi. Ushbu amaliyat ayniqsa maktab davri uchun juda keraklidir. Bola rivojlanayotgan paytda unga har tomonlama tushincha berib borish, ta'lIM bilan birgalikda shaxsiy rivojlanishiga ham, intellektual rivojlanishiga ham alohida e'tibor berish talab etiladi. Ular orasida bolalarning intellektual qobiliyatlarini maqsadli rivojlanirish, o'qishga bo'lgan qiziqishini, shuningdek, tarixni o'qitishda ijodiy salohiyat va mustaqil ishlashni shakllantirish imkonini beradigan didaktik o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Maktabda tarix darslarida interaktiv o'yinlarni qo'llashning muhim jihat o'qituvchining kasbiy kompetentligiga bog'liq. To'g'ri tanlangan va qo'llangan metod orqali o'quvchining fikrlash doirasi kengayadi, kreativligi rivojlanadi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi usullar qo'llanildi: tarix o'qituvchilarining ilg'or tajribasini umumlashtirish usuli; psixologiya, pedagogika bo'yicha ta'lIM muammolariga bag'ishlangan xorijiy va mahalliy ilmiy

asarlarni o'rganish, darslarni o'qitishning noan'anaviy shakllari, zamonaviy pedagogik texnologiyalardir.

Hozirgi vaqtida tarix darslarida rolli, teatrlashtirilgan va ishbilarmonlik o'yinlari keng tarqalgan. Ushbu o'yinlarning tahlili va ularni turli yoshdagi maktab o'quvchilari o'rtasida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari shuni ko'rsatadiki, sodda o'yinlar asosan o'rta maktabda qo'llanilishi kerak, rolli va teatrlashtirilgan o'yinlar esa 5-7 sinflarda qo'llanila boshlanadi. Bunday tanlov albatta xossatan olingan bo'lib, kim qanaqa metoddan foydalanishni o'quvchining qabul qilish salohiyatiga qarab tanlanadi. Chunki har doim ham yoshga nisbatan o'zlashtirish ko'rsatkichlari teng kelmasligi mumkin. Bu hol mакtab davrida boshlang'ich sinflarda mакtab hayoti bilan tanishuv, yuqori sinflarda esa adabtatsiya bilan birga kechadi, natijada o'quvchining diqqati chalg'iydi. Shunga ko'ra mahoratli pedagog auditoriyaning holatiga qarab sekinlik bilan ularni o'zi maqsad qilgan darajaga olib chiqadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tarix darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish tajribasini tahlil qilishda mutaxasislardan: S.A. Ejov, O.S. Gazman, V.P. Bespalko, davra suhbatlari va uslubiy semenarlarni ma'qul ko'rganlar [1]. Yana bir taniqli amerikalik tadqiqotchi, professor Jeyms Pol Gee nafaqat zamonaviy gumanitar va ijtimoiy fanlar, balki mакtab ta'limidagi islohotlarning faol tarafdozlaridan bo'lib, o'zining amaliyotida dars uchun video o'yinlar metodining afzalliklarini o'rganib chiqqan. F. Frebel, M. Montessori esa dars jarayonida eng samarali metod sifatida didaktik o'yinlarni o'quvchiga tushuntirishda eng qulay metod, har tomonlama rivojlantiruvchi usul sifatida tanlashgan[2].

Mavzuning metodologik asosi umumiy ilmiy-pedagogik qoidalarni o'z ichiga oladi. Ularga: tizimlilik, tarixiylik, didaktika, dialektika, faollik va madaniy muvofiqlik, ta'lim tizimidagi o'rganishning uzluksizligi, ta'lim usullari va shakllarining o'zgaruvchanligi, muammoli xarakter, o'zaro bog'liqlik, ta'lim amaliyoti va nazariyasi, umumta'lim muassasalarida umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlikning umumiyligi; o'zin faoliyati nazariyasi, o'quvchi shaxsini rivojlantirishda pedagogika va psixologiya tushuncha kabilar kiradi. Dars jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqidir:

- malakali tarix o'qituvchilarining tajribalarini umumlashtirish orqali;
- ta'lim muammolariga bag'ishlangan psixologiya va pedagogika bo'yicha mahalliy va xorijiy ishlarni o'rganish;
- dars o'tkazishning noan'anaviy shakllari, zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish;
- nazariy ma'lumotlarni amaliyot orqali mustahkamlash, tarixiy dunyo to'g'risidagi tasavvurlarni boyitish;
- o'quvchining qiziqishlarini inobatga olgan holda, mavzuga mos interaktiv metodlar orqali.

O'qituvchining malakaviyligi, kasbiy psixologiyasi dars jarayonida ijtimoiy tajribani shakllantirish bilan birgalikda didaktik o'zin orqali ma'lum bir ta'lim natijasiga erishish uchun oldindan belgilangan maqsadni ko'zlab o'tkaziladi. Ko'p yillar davomida mакtab o'quvchilari uchun didaktik o'zin o'ynash metodlari ta'lim va tarbiya usuli bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ta'lim maqsadlari bilan o'yinlardan keng foydalanish ko'plab buyuk amaliyotchilar va nazariyotchilar uchun odatiy holdir.

F. Frebel uchun o'yin o'ynash tarbiyaning asosi bo'lib, uning o'yin tizimi umuman jismoniy va axloqiy rivojlanishni nazarda tutgan. M. Montessori didaktik o'yinlardan foydalanganda ular rivojlanish, mustaqillik va kognitiv faollikni ta'minlaydi, deb hisoblagan [5].

Umuman olganda tarix darslarida o'yin orqali mavzuni yoritish o'quvchini toliqtirmaydi, darsdan zerikmasdan, mashg'ulotlarda o'z fikrini bayon qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Didaktik o'yin o'qitishning keng tarqalgan va zamonaviy shakllaridan biri sifatida o'z o'rnni egallaydi, texnologiyaning o'zi esa o'qitishning yuqori natijalariga intilgan o'qituvchi faoliyatida muhim o'rinn tutadi.

Didaktik o'yinlardagi so'nggi ishlanmalar o'yin davomida o'quvchilarning aql-zakovati, tashabbuskorligi va mantiqiyligini rivojlantiruvchi jihatlarni topish va amalga oshirishga qaratilgan. Fanlararo yondashuvning o'ziga xos ma'nosi o'qitish jarayonida yoki o'quvchi ongida o'rnatilgan ta'limning turli sohalari o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarni amalga oshirishdan iborat.

Muhokama. O'qituvchilik kasbi qadimdan mashaqqatli kasblardan biri bo'lib kelgan. O'quvchini har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash unga bilim bilan birgalikda tarbiyalab shaxs sifatida kamolga yetkazish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Pedagogning kompetentligi uning nutqida, bilim darajasida, yetkazib berish qobiliyatida, tashqi ko'rinish, o'zini tutishida, atrofdagilar bilan muomala madaniyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Pedagogik ta'sir orqali o'quvchining yondashuvi shakllanadi. O'quvchining fanga bo'lgan munosabati o'qituvchining aynan shu kompetentligiga bog'liq. Fanga bo'lgan ijodiy yondashuv o'qituvchining ham o'quvchining ham kreativlik qobiliyatini rivojlantirib boradi. Ko'pincha ijodkorlik (inglizcha kreativ so'zidan - ijodkorlik, ijodiy qibiliyatlar) o'quvchi shaxsining nisbatan barqaror xarakteristikasi bo'lgan ijodiy qobiliyat darajasi, ijodiy bo'lish qobiliyat sifatida tushuniladi. Bu kabi tushinchalar kreativ so'zining lug'aviy ma'nosidan kelib chiqib tanlangan. Umuman olganda, har qanday sohaga nisbatan yangicha yondashuv, konstruktiv, nostandard yechimlar va xatti-harakatlar qobiliyati, shuningdek, yangicha tajriba, bilim darajasi va o'z kasbini rivojlantirishga bo'lgan munosabatdir [3].

Ijodkorlik o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish, xatti-harakatlarning yangi usullarini topish, shaxsning ichki resurslaridan optimal foydalanish va uning ijtimoiylashuviga hissa qo'shish imkonini beradi. Psixologlar XX-asrning oxirigacha ijodkorlikni intellektning vazifasi deb hisoblardilar va intellektning rivojlanish darajasi ijodkorlik darajasi bilan belgilanadi degan xulosa kelishgan. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, aql darajasi ijodkorlik bilan ma'lum chegaragacha bog'liq va juda yuqori intellekt hatto ijodkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Insonning o'ziga xosligi, individualligi ijodkorlik muammosi bilan chambarchas bog'liq.

Ijodkorlik shaxs faoliyatining tabiatini va natijalariga sezilarli darajada ta'sir qiladi va ko'p jihatdan uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini belgilaydi. Bunda dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish, intelektual qobiliyatni rivojlantirish vazifasi pedagogning zimmasiga tushadi. Kreativlikni rivojlantirish orqali pedagoglar o'quvchini ijtimoiylashishiga yordam beradi, jamiyat bilan muloqatga kirishi tezlashib boradi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kun pedagoglarining oldida turgan muammo shundaki o'quvchilarning fikrlash doirasi tezlikda kengayib borayotganligidir. Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagi ahamiyati ortib borayotgani o'quvchilarning yangiliklarni o'zlarini qidirib topishiga, dunyoda bo'layotgan voqealarni osonlikcha xabardor bo'lishi

auditoriyadan zerikishiga sabab bo'lmoqda. O'qituvchi har tomonlama kompetent bo'lib, o'zini sohasidan tashqari dunyoda bo'layotgan har qanday sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lib, internet tarmoqlaridan mukammal foydalana olsa, o'zining faniga bog'lay olsagina o'quvchi uchun o'qituvchi va uning fani qiziq bo'ladi. Hozirgi davrda o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkuri juda rivojlangan. O'quvchuvilarni oddiy faqat fan doirasidagi ma'lumotlar bilan diqqatini jamlash, e'tiborini tortish qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun pedagogning diqqati har tomonlama bo'lishi talab etiladi. Bundan tashqari, pedagog o'z nutqi orqali ishontirish imkoniyatiga ega. Nutqning ta'sirchanligi ishontirish qobiliyatiga bogliq. Ishontirish, bilimlar, qarashlar va xulq-atvor me'yordi tizimi bo'lib qolmay, balki ularni shakllantirish usullari hamdir. Ishontirish yordamida yangi qarashlar, munosabatlar shakllanadi yoki noto'g'ri fikrlar o'zgaradi. Munozara, tortishuv, suhbat, o'qituvchi hikoyasi va uning shaxsiy ibrat na'munasi ishontirish shakllari bo'lib hisoblanadi. Ishontirish o'quvchilarga ta'sir etish metodi sifatida yuqori samara berishi amaliyotlarda isbotlangan usul bo'lib foydalanib kelinmoqda [4].

Tarix fanini o'qitish jarayonida xronologik ketma-ketliklar, mantiqiy savollar, tarixiy jarayonlarni tushinish o'quvchi uchun bir vazifa bo'lsa, ularni anglab esda saqlash qo'shimcha vazifaniv talab etadi. Bunda mavzuni tushintirish berish, voqeylekni o'quvchilarga yetkazib bera olish o'qituvchining nutqiy mahoratiga ham bog'liq. Noto'g'ri tanlangan metod va nutqiy kamchiliklar jiddiy xato hisoblanib o'qituvchining o'z ustida ishlamaganligidan kelib chiqadi. Mavzu yetib boradigan darajada ochib berilmaydi.

Har qanday fikrlash faoliyati, shubhasiz, tahlil va sintez kabi operatsiyalarni o'z ichiga olganligi sababli, fikrlash jarayoni inson miyasining analistik va sintez faoliyatini ifodalaydi. Natijada dars jarayonida sodir bo'ladigan fikrlash, tahlil qilish, analiz, sintez jarayonlari amalgalashmaydi. O'quvchida esa ushbu mavzu yuzasidan bo'shliq paydo bo'ladi. Ushbu holat nafaqat tarix darslarida balki ijtimoiy fanlar tizimiga ham taalluqlidir. Fanlararo aloqalar o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va shakllantirishda, bilimlarni tizimlashtirish va uning mustahkam xarakterida muhim rol o'ynaydi.

Shunday vaziyatda o'qituvchi uchun fanlararo yondashuvni to'g'ri tashkil qilish talab etiladi. Fanlararo yondashuvda ham didaktik maqsadni birinchi o'ringa qo'yish talab etiladi. Sinfda didaktik o'yinni tashkil qilishda o'qituvchi o'qitishning aniq maqsadlarini ko'zlaydi ya'ni: rivojlantiruvchi, ta'limiylar va diagnostik. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar bir nechta mezonlarga bo'linadi va keng tipologiyani tashkil qiladi. O'yinlar faoliyat turi, o'qitish jarayonining yo'nalishi, o'yin usuli bilan belgilanadi.

Didaktik o'yinning o'rgatish maqsadlari o'qituvchi tomonidan o'quvchilar uchun bevosita va bilvosita bo'lib, ularni o'yin maqsadlariga aylantirish orqali amalga oshiriladi: topshiriqni boshqalardan oldin bajarish, finalga chiqish, g'olib bo'lish va hokazo.

O'qitish maqsadlari o'quvchilarni ishning tarbiyaviy xususiyati; O'yin maqsadlari ularni samarali natijaga erishishga yo'naltiradi.

Natijada o'quvchida bir fandagi bilimlari uning boshqa fanlar bilan bog'liqlikdagi bilimlari bilan boyib boradi. O'quvchida tafakkur qilish bilan birgalikda, mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarni tezkor hisoblab tahlil qilish, matematik aniqlik, ularni gapirish jarayonida nutqiy ravonlik xususiyatlari rivojlanib boradi.

Ta'lim muhitida video o'yinlarning ahamiyati o'yin va o'quvchi tomonidan yaratilgan ramziy olam o'rtasidagi o'zaro ta'sir dinamikasi bilan bog'liq. Ushbu o'zaro ta'sir o'sha

muhitlarga tegishlilik tuyg'usini va ma'lum bir hikoyaning rivojlanishini osonlashtiradigan immersion jarayoni bilan qo'llab-quvvatlanadi.

"Fanlararo yondashuv" atamasi nazariy va o'ziga xos ikkita ma'noga ega. Nazariy bilim didaktika tamoyillari yoki didaktik shart sifatida fanlararo yondashuvni nazarda tutadi. Tarix darslarida mohir pedagog o'quvchini qiziqtirish, fanga munosbatini o'zgartish uchun fanlararo yondashuvdan foydalansa bo'ladi. Bunda o'quvchining qaysi fanga qiziqshi va uni tarix fanidagi o'tilayotgan mavzu bilan yaqinlashtirib vaziyatdan mohirona chiqib ketishi katta ahamiyatga egadir.

Tarix fanlarida bunday usul orqali o'quvchining mantiqiy fikrlash va tezkor hisoblash qobiliyatları shakllanib boradi. Eksperimental sinflarga qabul qilingan barcha o'quvchilarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular o'rganilayotgan materialda faollik ko'rsatadilar, berilgan topshiriqni mustaqil va ijodiy bajarishga harakat qildilar, o'rganilayotgan materialni tanqidiy tahlil qilishga harakat qiladilar.

O'quvchilar mustaqil ravishda o'rganilayotgan materialni sinchkovlik bilan tahlil qiladilar, mavzu yuzasidan savollarni beradilar. Bundan tashqari, o'quvchini daqrsga diqqatini oshirishda video darslardan ham foydalanish samaraliroqdir. Video o'yinlar, James Paul Gee ma'lumotlariga ko'ra, simulyatsiyaga asoslangan o'qitish turini taklif qiladi va bu narsa o'quvchilarni maqsadlarga rioya qilishga o'rgatadi. Bundan tashqari ta'lim muhitida video o'yinlarning ahamiyati o'yin va o'quvchi tomonidan yaratilgan ramziy olam o'rtasidagi o'zaro ta'sir dinamikasi bilan bog'liq jarayonni qamrab oladi [6]. Ushbu o'zaro ta'sir o'sha muhitlarga tegishlilik tuyg'usini va ma'lum bir hikoyaning rivojlanishini osonlashtiradigan immersion jarayoni bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Natijada o'quvchining salohiyatiga qarab vazifalar asta-sekinlik bilan murakkablashib, tasavvur kengayib boradi. Dars jarayonida foydalaniladigan o'yin bilim sohasining soddalashtirilgan modeli sifatida qaraladi, bu materialning murakkabligini nazorat qilishni va amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan qoidalarni tasavvur qilishni osonlashtiradi. Qayd etilishicha, har qanday shaklni o'rganish o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish sari harakatning barcha traektoriyalarini to'liq tushunishga va ulardagi ijod imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak [7].

Nazariy jihatdan, dars jarayonida o'rganilayotgan mavzu yuzasidan o'qituvchi o'qitiladigan mazmun bilan bog'liq ravishda amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini ham berib borishi zarurdir.

Bunda o'quvchilar uchun bilish jarayonlarini rejalashtirish, ularni mavzudagi aspektga yo'naltirish va baholash qobiliyatiga ega bo'lgan ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda pedagogik harakat mezonlarini taklif etadi. Ya'ni o'quvchining kelajakda qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar unda dastlabki tushunchalarga ega kadr sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shu tarzda, o'quvchilarni yuqori bosqichlarga tayyorlash o'rta maktab ta'limida zaruriy o'zgarishlarni qabul qila olish, ma'lumotlarni filtrlash, tanqidiy fikrlash va tahlilni qo'llab - quvvatlaydigan kadrlar yetishib chiqishiga zamin yaratiladi.

Media darsliklar, elektron ta'lim sistemasining rasmiy ta'limga xususan, maktab ta'lim tizimiga ta'siri bo'yicha bir nechta tadqiqotlar o'tkazildi. Shubhasiz, video o'yinlar g'oyaviydir, chunki joystik orqasidan uzatiladigan "donolik" yashirindir. O'quvchilar esa, har doim ham usha yashirin g'oyani anglab yetmaydilar yoki tushinmaydilar. Bunday vaziyatda esa, bo'lajak o'qituvchilar tarixni o'qitishda video o'yinlar bilan shug'ullanishda tanqidiy fikr yuritishlari

kerak, buning uchun o'qitishning roli mazmunni uzatishdan tajribalarni loyihalashgacha o'zgaradi.

Tarmoqdagi video darslik o'yinlarida yashiringan ma'no-mazmun, ilgari surilayotgan g'oyalar obrazning, voqeanning ortida bo'lib uni bir ko'rishda oddiy o'quvchi ajrata olmasligi mumkin. O'qituvchi esa kasbiy bilimdan tashqari, mantiqiy bilimlarni ham egallagan bo'lishi talab etiladi[8].

Tarixni o'qitishda yana bir muhim jihat shundaki, bu- obyektivlikdir. Tarixiy voqe va manbalarga nisbatan obyektiv munosabatda bo'lmaslik ma'lumotni yetkazib berish jarayonida radikallikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga misol tariqasida sobiq SSR davridagi tarixiy materiallarni, o'quvchilarga o'tiladigan tarix darsliklarni olaylik. Milliy qahramonlarga salbiy munosabat, asosiy urg'uni siyosatdan kelib chiqqan holda, tarixiy voqealarni o'zgartirib yetkazish yoki Ikkkinchi jahon urushi voqealari tahlili va boshqalar. Bugungi kunda bunday holatni biz internet tarmog'idagi video darsliklar, roliklar, tarixga asoslangan mantiqiy o'yinlarda uchratishimiz mumkin.

Jeyms Pol Geening ta'kidlashicha, video o'yinlar o'rganish tamoyillarini o'rganish uchun ideal laboratoriyadir, chunki ular murakkablashgani sari o'yin dizaynerlari o'yinchilarga ulardan o'rganishga yordam beradigan ramkalarni birlashtiradi va ishlab chiqadi. Bu xususiyatlarni tekshirish g'oyalarni berishi mumkin o'quv muhitini loyihalash - xususan, ta'lif dasturlari.

Ayniqsa, virtual olamlar mobil telefonlar va Internet kabi yuqori texnologiyali aloqalar orqali bog'langan real dunyo bo'ylab tarqaladigan amaliy jamoalar yoki yaqinlik guruhlarini qanday yaratishni tushunishimizga yordam berishi mumkin jtimoiy fanlarni o'zlashtirish jarayonida savollar ham muhim element hisoblanib, o'quvchi tomonidan berilayotgan savollarga qarab mavzuni qay darajada o'zlashtirganligini aniqlab beradi yoki o'qituvchi tomonidan beriladigan savollarga javoblar ham natijani aniqlashga yordam beradi.

O'zlashtirgan mavzuni gapirib berish jarayonida esa o'quvchining nutqi rivojlanib boradi, nutq qilish qobiliyati shakllanadi. Tarix fani o'qituvchilari asosan o'tmishdagi voqealarni tekshirish uchun beshta asosiy savolga javob izlashga harakat qilishadi. Bu savollarga nima?, nima uchun?, qachon?, qanday? va qayerda? kabilar kiradi.

Ushbu savollar mavzuni tushintirish davomida jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olishga intiladi va kelajak avlodlar uchun muhim voqealarni qayd etish uchun mo'ljallangan. Siyosiy, adabiy, ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, tibbiy, madaniy, diniy, fuqarolik, harbiy va boshqa turli xil hayot jabhalarini o'rganish va bilish tarixga kiradi.

Tarix fanlaridagi didaktik o'yinlar mavzu bo'yicha jamiyatning har jabhalarini qamrab olgan holda, natijaga erishadi. Shu bilan birgalikda, ta'lif jarayonida o'yinlardan foydalanishning bir qancha o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud:

- o'qituvchining to'liq nazorati cheklanishi, dars jarayonida ortiqcha shovqinlarning vujudga kelishi;
- turli media resurslaridan foydalanishda vujudga keladigan noqulayliklar, dars jarayonida yangilik sifatida ulardan uzlusiz foydalanish o'quvchilarda ko'z charchashiga va boshqa sog'liq uchun zararli oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin;
- onlays o'yin darslarni sotib olishdagi moliyaviy muammolar;
- to'liq ishtiroy etish mumkin bo'lgan o'yin texnologiyalari juda qimmat va bu o'quvchilar o'rtasida bo'shliqni keltirib chiqarishi mumkin;

- hozirgi kunda yoshlar o'rtasida eng asosiy muammoga aylanib borayotgan yana bir sabab dars jarayoniga ham turli ko'rinishlarda virtual olamning aralashyotgani haqiqiy hayotdagi o'zaro ta'sirlardan ajralib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu kamchiliklarga qaramay, o'yin darslari, online video roliklar o'quvchilar diqqatini jalg qilishda eng samarali metod hisoblanmoqda. Faqatgina bo'lajak o'qituvchilarni oldidagi asosisy vazifa tarixni o'qitish jrayonida video roliklar, online o'yinlar bilan shug'ullanishda tanqidiy fikr yuritishlari talab etiladi. Buning uchun o'qitishning roli mazmunni yetkazib berishdan tajribalarni loyihalashgacha o'zgaradi.

Didaktik o'yin mashg'ulotlari yosh o'quvchilarda gibridd identifikatsiyani qanday yaratishi va safarbar etishi va bu o'ziga xosliklar turli kontekstlarda qanday namoyon bo'lishi kabi ko'plab savollarni yuzaga keltirishi mumkin[]. Shunday vaziyatda mavzu yuzasidan tanlovni o'quvchining o'ziga qo'yib berish orqali vaziyatni to'g'irlash mumkin. Bunda o'qituvchi pedagog o'quvchining shaxsiy tanlovini hurmat qilgan, uning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligi oshishiga yordam bergan bo'ladi. O'quvchida shaxsiy fikr tushinchasi va uni ochiq-oydin bayon qila olish ko'nikmasi shakllanib boradi. Yangi texnologiyalar amaliyotdagi yutuqlarni taqozo etadi. Biroq, bunday yangiliklarning asosiy to'siqlaridan biri bugungi kunda o'quv xonalari yetarli shart-sharoit bilan ta'minlanmaganligidir.

Kompyuter xonalarini o'quv jamoalari uchun moslashtirishning qiyinligi. An'anaviy sinfxonalarda tarixiy sanalar, voqealar yortilgan jihozlar bo'lsa-da, bu o'quvchilar o'tmishtga qiziqish bilan qarashni o'rganadilar degani emas. Bunday holda, motivatsiya o'qishni tushunish strategiyalarini taklif qilish, tushunchalarga ularning tarixiy ma'nosini berish, hozirgi va o'tmisht o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish uchun foydali vositadi. Shu tarzda o'quvchining o'z oldiga qo'ygan vazifasi amalgalashadi.

Tarixni o'rganishda ommalashib borayotgan video o'yinlarda uch maqsad jamlangan. Ular birinchidan, o'yin dizayneri orqali o'quvchining estetik didi rivojlanishi, tafakkurining kengayishi maqsad qilinadi. Video o'yindagi syujet o'quvchilar tomonidan tanlansa-da ularni tarixchi qilmaydi, balki qaror qabul qilish uchun turli mezonlarni qo'llash imkonini beradi. Syujetni qurishda ular o'z tanlovlarinining sabablari, harakatlarining sababi haqida o'ylashga majbur bo'lishadi.

Ikkinchidan, bu bosqich o'qitish uchun mo'ljallangan, "jiddiy didaktik o'yinlar" deb ataladigan o'yinlardan foydalanish, bu yerda o'rganish va o'ynash birlashtiriladi. O'quvchi o'yin davomida o'rganib ma'lumotni analiz qilib boradi. Nihoyat, uchinchi yondashuvda yakuniy maqsad video o'yinlari orqali sinfda o'qitishni birlashtirish va o'quvchilarni bir vaqtida baholashga qaratilgan. Shu tariqa, o'quvchilar tomonidan tuzilgan dars rejasi to'liq amalgalashadi.

O'quvchilarni baholash mezonlari ham tanlangan metodlardan kelib chiqib, amalgalashadi. O'yin mashg'ulotlari davomida o'quvchilar har tomonlama o'zlarini ko'rsatadilar: jamoada ishlashi, muloqotga kirishishi, fikr almashishi, tinglash madaniyati shakllanib boradi va bu o'quvchilar uchun o'quvchini har tomonlama o'rganishiga yordam beradi. Bugungi kunda baholash vositalaridan (so'rovnomalar va yarim tizimli intervyyular) ishlab ommalashmoqda, bu esa taklif qilinayotgan o'zgarishlarning ta'sirini nazorat qilish imkonini beradi.

Xulosa. O'quvchilarning darslarga bo'lgan munosabati o'quvchining yondashuviga bog'liq holda shakllanib boradi. Har qanday kayfiyatdagi, bilim darajasi turli bosqichlarda

bo'lgan o'quvchilar uchun ham mos metodlar mavjud bo'lib, o'qituvchining mahorati ularni tanlay olishida, dars jarayonida qo'llanishida namoyon bo'lib boradi.

Ijtimoiy fanlar doirasida asosan an'anaviy ma'ruza, hikoya qilish, gapirib berish metodlari keng qo'llanilsada, o'quvchilarning talab va ehtiyojlariga ko'ra boshqa yuqorida keltirib o'tilgan didaktik o'yinlar, online boshqotirmalar, o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undaydigan, tafakkurini kengaytiradigan video o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tajriba davomida video o'yinlar, online darslarning ijobiy tomonlari bilan birgalikda bir nechta salbiy jihatlari borligini ko'rib chiqdik.

Shunga qaramay, bugungi kunning talabi bo'lgan video darslar, didaktik o'yinli mashg'ulotlar o'quvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishda samaraliroq ekanligini aniqladik.

Bu borada pedagogning tajribasi, baholash mezonlari, o'quvchi bilim darajasini aniqlay olishdagi kabiy mahoratlari hal qiluvchi mezon bo'lib, ularga ko'ra yuqorida keltirilgan yangicha metodlardan unumli foydalanish mumkindir. O'yinli darslar, online video roliklardan foydalanishda asosiy jihat foydalanish vaqtি davomiyligi, murakkablik darjasи, o'quvchi yoshiga moslik darjasи, g'oyaviy tomonlariga bog'liqdir. Shular doimiy nazoratda bo'lsa, o'qituvchi bugungi kunning talabiga javob beradigan har tomonlama kreativ salohiyatga ega o'quvchini shakllantiradi, tarbiyalaydi.

O'rgangan xuloslarimiz ham shuni ko'rsatadiki, bugungi globallashuv jarayonida eng asosiysi, o'quvchilarni diqqatini fanga jalb qilish va ularni darsdan zeriktirmaslikdir. O'quvchilar uchun ochiq baza internet mavjudligi ularni o'qituvchi aytayotgan ma'lumotlardan zeriktirishi mumkin, shunday vaziyatlarda ularning qiziqishlaridan kelib chiqib online darslar, video roliklar, didaktik o'yinlardan foydalanishni maqsadga muvofiq yechim sifatida tavsiya qilamiz.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Nadegda Makarova, Marina Potemkina, Nina Chernova, and Andrey Dorozhkin Nosov Magnitogorsk State Technical University, 455000, Magnitogorsk, Lenin Ave., 38, Russia, A System of Didactic Games as a Foundation of Teaching History in Secondary School. Стр - 4, 5
2. Using Video Games for Teaching History. Experiences and Challenges. James Paul Gee, What video games have to teach us about learning and literacy? (New York: Palgrave Macmillan, 2003). Athens Journal of History - Volume 1, Issue 1 – Pages 9-22
3. Дружинин Владимир Николаевич (д.псх.н.) Психология общих способностей. Концепция креативности Дж. Гилфорда и Э.П.Торренса <https://psy.wikireading.ru/2437>
4. Xodjayev B.X. "Umumiy pedagogika" pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik. «Sano-standart» nashriyoti Toshkent – 2017. B-334
5. THEORY AND METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF MATHEMATICA. <https://intellect.ml/theory-and-methodology-of-development-of-mathematical-representations-in-children-of-preschool-age-1046>
6. Методические рекомендации по формированию креативного мышления обучающихся (направление работы: технология развития креативности обучающихся). Муниципальное бюджетное образовательное учреждение Гимназия №1 г.о. Самара 2016 ст 5-6

7. Богданова Д. А. Обучение на основе видеоигр. Богданова Д.А., Лисицына А.А. В Интернет - с широко закрытыми глазами Дистанционное и виртуальное обучение № 2, 2011, С. 117-125. <http://www.eschoolnews.com/2012/07/17/bill-gat>
8. Очилов М. Янги педагогик технологиялар. – Қарши.: Насаф, 2000. – 79 б

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

N^o 11 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**" электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масьулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).